

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**MUTAXASSISLIGI CHET TILI BO`LMAGAN OTM TALABALARIGA INGLIZ TILINI
O`RGATISHDA YANGI PEDAGOGOIK TEXNOLOGIYALAR**

F. F. Yuldasheva

Ilmiy rahbar:

O`zDJTU katta o`qituvchisi

Ortiqova Rayhona Umar qizi

O`zDJTU 2 - bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda o`sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarini o`qitish sifatini ta`minlash, chet tillarida erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish haqida ma`lumot beriladi. Bundan tashqari chet tillarni o`zlashtirish orqali jahon ta`lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlashga bo`lgan say – harakatlar ko`rib chiqiladi.*

Annotation: *This article provides information on ensuring the quality of teaching foreign languages to the young generation, and fundamentally improving the system of training specialists who can speak foreign languages fluently. In addition, efforts to prepare mature personnel who meet world educational standards by mastering foreign languages will be considered.*

Аннотация: В данной статье представлена информация по обеспечению качества обучения иностранных языков подрастающему поколению, а также коренному совершенствованию системы подготовки специалистов, свободно владеющих иностранными языками. Кроме того, будет рассмотрена работа по подготовке зрелых кадров, соответствующих мировым образовательным стандартам, путем владения иностранными языками.

Kalit so`zlar: *pedagogik texnologiya, poliglossiya, Zamyatkin motodi, tinglash, eshitish, tahlil qilish, taqlid qilish.*

Key words: *pedagogical technology, polyglossia, Zamyatkin's method, listening, hearing, analyzing, imitating.*

Ключевые слова: *педагогическая технология, многоязычие, девиз Замяткина, слушание, слушание, анализ, подражание.*

Til o`rganish kishilik jamiyatida bag`oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo`lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o`rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillami bilish, ayniqsa, ko`p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kash etmoqda. Ta`kidlab o`tish joizki, xorijiy tillarni o`rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o`sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta`lim muassasasidan tortib oliv ta`lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o`zida taqqoslab o`rganadilar. Tilshunoslikda mavjud ilmiy-

tadqiqot metodlari orqali o`zaro genetik bog`liq va o`zaro genetik bog`lanmagan til oilalariga tegishli bo`lgan, xalqaro va millatlararo aloqada yuksak darajaga va tajribaga ega bo`lgan tillarni qiyoslash orqali o`rganish bir muncha oson bo`lishi ilmiy isbotlangan haqiqatdir.

Mamlakatimizning kelgusidagi istiqboli uchun mustahkam poydevor yaratishni maqsad qilgan birinchi Prezidentimiz O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga shiddat bilan kirib borishini ta`minlash uchun eng dolzarb hisoblangan chet tillarini o`rganishga qaratilgan bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqdi. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrdagi „Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi №1875 bunga misol bo`la oladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda chet tilini bilish muhim masalaga aylanib bormoqda.

[“O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda” Shavkat Mirziyoyev].

Shu sababli har bir soha vakillari uchun xoh ish yuzasidan, xoh o`qish yuzasidan bo`lsin chet tilini o`rganish zarurdir. Lekin bilamizki, mutaxassisligi chet tili bo`lmagan insonlar uchun o`zga tilni o`rganish ba`zi qiyinchiliklarni kelib chiqaradi. Ushbu maqolada aynan ular uchun inglez tilini o`rganishda yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishib chiqamiz.

Til leksika, grammatika, talaffuz birliklarini yaxlit birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa tarzida nutq faoliyatining „qurilish“ materiali sanaladi. Leksika birligi, grammatika birligi va talaffuz birligi gapirish, tinglab tushunish, o`qish va yozuvda o`rgatish, o`rganish birliklari deb qaraladi. Ularning funksional, semantiv va formal jihatlari o`zlashtirish uchun maxsus mashqlar bajarishni talab qiladi. Tinglab o`rganish hozirgi kunda keng tarqalgan til o`rganish usullaridan bir hisoblanadi, shuning uchun barcha zamonaviy universitetlar kompyuter va slayd proyektorlar bilan jihozlangan. Chet tillarni tinglab o`rganishga asoslangan yana bir metod borki, bu metod asoschi Nikolay Zamyatkin nomi bilan nomlanuvchu Zamyatkin metodidir. Zamyatkin kitobida tasvirlangan asosiy printsip to`rta “kit” ga asoslangan:

- Tinglash
- Eshitish
- Tahlil qilish
- Taqlid qilish

Metodni qo'llash davomida eng qiyin va puxta ish audiokursni o`zlashtirishdan iborat, u matritsa deb nomlanadi. Matritsalarning har bir bir dialog yoki monologlardan iborat. Matritsa juda diqqat bilan tinglanadi, lekin uning ma`nosini talab tushunishi shart emas. Har bir dialogni kun davomida 3 saotdan mashq qilish tavsiya qilinadi. Eshitish davomida matnni kuzatib boriladi, talaffuzni chiqarish uchu esa matn baland ovozda o`qiladi. Bu usul matnning 85% ni lug'atsiz qabul qilish imkonini beradi. Bu metod muallifi matritsa bilan ishslash tugagandan so`ng, iloji bo`lsa, lug'at ishlatmasdan,

chet tildagi katta bo'lмаган kitobni o'qishni boshlashni tavsiya qiladi. Shuningdek, o'рганилайотган тilda teledasturlar, kino va filmlar ko'rish foydali ekanligini takidlaydi.

[“Siz chet tilini o'rgata olmaysiz”. Qo'rqinchli ism, lekin haqiqat. Kitob juda kichik emas, lekin ingliz tilini o'рганишни istagan har bir kishiga va boshqa tillarni o'рганишни istagan har bir kishiga o'qishga arziydi! Nikolay Zamyatkin].

Shunga o'xshash yana bir metodlardan bir bo'lган bosqichma - bosqich o'ргатиш chet tillarni o'ргатиш va o'рганишда yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi. Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. Harmerning ta'kidlashicha, suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab - bu talaffuz. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda. Native speakerlar agar so'zlovchi so'zlarni to'gri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkinligini takidlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, chet tilini o'рганишда metodlar ham zamonga moslashib boraveradi, lekin chet tilini o'рганишning eng samarali yo'llaridan biri boshqa tillar bilan solishtirib o'рганишdir. Chet tillarni o'рганиш insonga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi, fikrlashini boyitib, xotirasini mustahkamlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. – T.:O'qituvchi, 2012. – 4-bet.
2. Nikolay Zamyatkin ."Sizga chet tilini o'rgatish mumkin emas". 2013. 13-bet.
3. E. M.Ortiqov. Mutaxassisligi chet tili bo'lмаган OTM talabalariga ingliz tilini o'ргатишда yangi pedagogik texnologiyalar (maqola) "Science and Education" Scientific Journal.2020. 2-bet.